

## “MARKAZIY OSIYODA ILMIY-FALSAFIY TAFAKKUR (AHMAD YASSAVIY ILMIY MEROsi MISOLIDA)”



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15639476>

*Matkarimova Sadokat Maksudovna  
Ma'mun universiteti Tarix kafedrasи mudiri, t.f.d.  
Jumaniyozov Doniyor Mansurbek o'g'li  
Yosh tadqiqotchi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda dastlabki vujudga kelgan „Yassaviya” tariqati va Ahmad Yassaviyning tassavvufiy mazmundagi hikmatlari, shuningdek, hikmatlarning ifoniylarini, tarixiy ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, mutasavvif, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, so'fiy, shayx, murid, hadis, devon

**Annotation:** In this article, the Yassaviya sect, which first appeared in Central Asia, discusses the wisdom of Ahmad Yassavi in the mystical content, as well as the philosophical analysis of the wisdom and its historical significance.

**Key words:** Sufism, mystic sharia, sect, enlightenment, truth, Sufi, shaykh, murid, hadith, divan

### Kirish:

Tasavvuf va tasavvufiy ilmlar azaldan sharq xalqlari ma'naviyatida axloqiy yuksalish, inson kamolotida ezgulik, xayr, himmat, o'z-o'zini takomillashtirish g'oyasi sifatida qaralib kelgan katta ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Musulmon olamida tasavvufiy ilmlar asosida nafsni tiyish, qanoat, sabr tushunchalar bilan birga Allohning vasliga erishish, Allohning roziligiga erishish ilinjisida zuhd, taqvo, botiniy ibodat, ruhiy poklanish e'tiqodi ifodalanib kelingan. Shuning uchun ham tasavvufga ta'rif berganda juda ko'p shayxlar uni – shaytoniy nafsni jilovlash va rahmoniy hislatlar kasb etish ilmi deb ko'rsatganlar. Mutasavviflar tasavvufni inson ruhiyatini turli ko'rinishlarida tadqiq etib, ruhan kamolotga erishuv yo'llarini izlay boshlaganlar.

### Asosiy qism:

Tasavvuf – Qur'oni karim va hadisi shariflarga asoslangan ilm sifatida Kufa, Bag'dod, Basra va Misr diyorlarida vujudga kelgan bo'lsa, uning Markaziy Osiyoda ham tarqalishi, shuningdek rivoj topishi XI-XII asrlarda „Yassaviya” tariqati bilan, xususan, tariqat asoschisi Ahmad Yassaviy nomi bilan bog'liqdir. Ahmad Yassaviy xalq orasida „piri Turkiston”, „Sulton ul-orifin”, „Turkiston ahlining qiblayi duosi”, „Qul Xoja Ahmad” nomlari bilan mashhur bo'lib [1], uning tariqati o'z navbatida hali islomga kirmagan turkiy xalqlar orasida islomiyatning keng yoyilishiga, iymon e'tiqod tushunchalarining qaror topishiga

xizmat qilgan. Yassaviy o'z tariqatining asosini shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat tushunchalari bilan bog'ladi va tasavvufiy ilmda ma'lum daraja hosil qilishlikda, shuningdek, Allohning vasliga erishmoq yo'lida avvalo shariy ilmlarni o'rganishlikni, undan so'ng tariqat birla qalban ma'rifikatulloh darajasiga ko'tarilish g'oyalarini targ'ib qildi. Ahmad Yassaviy tasavvufda ma'lum bir daraja hosil qilmoqlikni quyidagicha ifodalaydi:

Shariatni bozorini sayron qildim,  
Ma'rifikatning bo'stonida javlon qildim,  
Tariqatning peshgohida tiyron qildim,  
Haqiqatning eshigini ochdim, do'star.

Yassaviy o'z davrida Toshkent va Sirdaryo hududlari, Sayhunning shimolida yashagan ko'chmanchi turkiylar orasida katta nufuz qozondi. Ahmad Yassaviyning islomiy e'tiqod asosida tarkib topgan tariqati XIII asrdan XV asrgacha butun Markaziy Osiyoda, Xorazmda, Uzoq Kavkazda, O'rta Volganing tatar diyorida, shuningdek, Xuroson, Eron va Onado'li hududlarida keng tarqaldi[2].

Ahmad Yassaviy o'z tariqatini mahalliy qavm elatlar uchun tushunarli bo'lган sodda va ravon turkiy tilda, she'riy uslubda, hikmatlar shaklida ifodalab, turkiy xalqlar ma'naviyatida yuksak o'rın egalladi. O'z davrida Alisher Navoiy Ahmad Yassaviy faoliyatiga yuqori baho berib, „Nasoyim ul-muhabbat” asarida shunday ta'rif keltiradi. „Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston mulkinining shayxul-mashoyixidir. Maqomoti oliy va mashhur, karomati matavoliy va nomahsur ermish. Murid va ashob g'oyatsiz va shohu gado aning irodat va ixlos ostonida nihoyatsiz ermish”[3]. Tasavvuf ilmining yirik pirlaridan bo'lmish So'fi Olloyor ham Yassaviy hikmatlariga ishora qilib, „Ahmad Yassaviydan ulug' bir kitob” meros qolganligini aytadi. Bu shubhasiz, Yassaviy hikmatlarining jamlanmasi bo'lmish, „Devoni hikmat” kitobidir. Hikmatlarning Devon holiga kelishi shayx Ahmadning shogirdlari tomonidan jamlanishi, yillar o'tgach esa nusxalarning ko'paytirib borilishi bilan bog'liqdir.

Amad Yassaviy hikmatlarining umumiyligi miqdori haqida gap ketganda bu masala yassaviyshunoslar o'rtasida baxsli mavzu hisoblanadi. Shunga qaramasdan ayrim manbalarda, hikmatlar soni 4400 ta ekanligi, ayrimlarida esa 9900 ta hikmat mavjud bo'lganligi ko'rsatiladi.[4] Ahmad Yassaviy esa hikmatlarining birida o'zidan meros qolgan hikmatlarining miqdorini 4400 soni bilan ifodalaydi:

Qul Xoja Ahmad har bir so'zung dardga darmon,  
Toliblarga bayon qilsam, qolmas armon.  
To'rt ming to'rt yuz hikmat ayttim, Haqdin farmon,  
Farmon bo'lsa to o'lguncha so'zlasam man.

Yassaviy hikmatlarining miqdori turlicha qilib ko'rsatilishida, bu masalada aniq to'xtamning mavjud emasligida, yoinki bugungi kundagi hikmatlar miqdori 4400 tani tashkil etmasligiga sabab, avvalo Devon tarkib topgan davrga oid asl manbaning bizgacha yetib kelmaganligidadir. Shu kungacha saqlanib qolgan qo'lyozma nusxalar, manbalar asosan XII asrga emas, balki XVIII-XIX asrga oidligidadir. XX asrga kelib Yassaviyning hikmatlari ko'pchilik omma o'qib

o'rganishi uchun Toshkent va Qozon shaharlarida ham nashr qilina boshlangan. Shular qatorida 1904-yil Qozonda chop etilgan toshbosma nusxa ham mavjud bo'lib, unda 150 dan ortiq hikmat o'rinni egallangan.

Ummuman olganda Ahmad Yassaviy asos solgan tariqatini o'rganishda, uning hikmatlaridagi tasavvufiy ma'noni anglashda hikmatlarning miqdori emas, balki undagi mazmun Yassaviy ilgari surgan g'oyalarning tag zamiri muhim hisoblanadi. Ahmad Yassaviy o'z hikmatlarida Allohdan qo'rqish, shariat amallariga rioya etish, Allohni rozi qiladigan savob ishlar qilish, jannatdan umidvor bo'lish ruknida ifodalab, hikmatlarni yoritib berishda qayta-qayta Qur'on oyatlari murojaat qilinganligi, Rasululloh (s.a.v.) ning hadisi shariflariga moslab talqin qilinganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. „Devoni hikmat” dagi ko'plab hikmatlarda Yassaviy tomonidan ko'plab Qur'oni karim suralariga, undagi oyatlarga ishora qilinadi. Bu esa Yassaviyning tasavvuf shayxlari ichida Qur'on ilmida, undagi sura va oyatlarni tafsir qilib avom xalqqa tushuntirishda ham yuksak tafakkur egasi ekanligidan dalolat beradi. Xususan, Yassaviy hikmatlar bayonida: A'rof surasi (23-oyat „80-hikmatda”, 143-oyat „28-111-hikmatda” 172-oyat „9-hikmatda”); Toha surasi (10-hikmatda); Nur surasi (14-48-hikmatlarda); Juma surasi (16-hikmatda); Alaqt surasi (20-hikmatda); Zoriyat surasi (37-hikmatda); Muhammad surasi (51-hikmatda „47/15-oyat”); Inson surasi (62-hikmatda „76/21-oyat”); Baqara surasi (70-117-hikmatlarda „152-oyat”); Taborak ya'ni Mulk surasi (72-hikmatda); Arrohman surasi (73-hikmatda); Yosin surasi (73-hikmatda „59-oyat”); Anqabut surasi (75-hikmatda „57-oyat”); Moida surasi (106-hikmatda „54-oyat”, 113-hikmatda „119-oyat”); Zalzala surasi (127-hikmatda); Hud surasi (129-hikmatda „3-oyat”); kabilardan keng foydalangan. Hikmatlarning ifodalanishida odob-axloq masalalari, nafsni tiyish, sabr-toqat, mo'min musulmonlarga xos insoniy sifatlarning ulug'lanishi bilan birgalikda, bularga dalil asnosida Qur'on oyatlaridan iqtiboslar keltirilishi Yassaviy yashagan zamonda hali endi islomni qabul qilgan turkiy elatlarning iymon e'tiqod, ma'rifat tushunchalarini yaxshi anglashlariga, balki faqat anglash bilan kifoyalanib qolmasdan, turmush tarzlarida ham amal qilib yashashlariga xizmat qilgan bo'lsa ajab emas. Xususan Ahmad Yassaviy „Nur” surasidagi oyatlardan biriga ishora qilib, hikmatlarining birida shunday nasihat qiladi:

Eranlari Haq yodidin g'ofil bo'lmas,  
„Rijalun la tulhihim” der Xoliqu-nos.  
Eranlarni yo'lin tutqon yo'lida qolmas,  
Ul hazratda sir-asrori maqbul bo'lur.

Ushbu hikmatdagi „Rijalun la tulhihim” kalimasi oraqli Yassaviy o'z hikmatida Alloh taoloning „Nur” surasi 37-oyat orqali „Ertayu kech U zotni poklaydigan kishilar bordirki, ularni na tijorat va na oldi-sotdi Allohni zikr qilishdan, namozni to'kis ado etishdan va zakotni (haqdorlarga) ato etishdan mashg'ul qila olmas”[5] deya marhamat qilganligini ta'kidlab o'tadi. Yassaviy hikmatida bu oyatni misol qilib keltirish orqali xalqni millatni, butun bir insoniyatni turmush tashvishlari, kundalik mehnat yumushlari bilan mashg'ul

bo'lish bilan toat toat-ibodatni keyinga surishdan, foniy dunyoning o'tkinchi muammolariga aldanib qolishlikdan chaqiradi. Balki Alloh taoloning o'zi Qur'oni karimda ochiq oydin bayon qilganligini, har bir inson toat ibodatga ixlos bilan qarasa, qalbida iymom e'tiqodi sobit bo'lsa kundalik mehnati bilan birga ibodatini, tasbehu namozini to'kis ado qila olmoqligini pandnoma shaklida ifodalaydi. Shuningdek, Yassaviy yana bir hikmatida toat-ibodatda ixlosli bo'lган, Alloh taoloning roziliginı topgan mo'min kishilar keyingi hayotida Robbisining rahmatiga qanday sazovor bo'lishliklarini, firdavsmonand jannatlar bilan siylashligini quyidagicha bayon qiladi:

Diydor tilab tark aylasang mosivoni,  
O'lmas burun vujudingni ayla foni.  
„Va anhorin min asalin musaffo”ni,  
Uchmoh ichra xos qulig'a ehson qilur.

Bu hikmatning mazmuni: bu dunyo o'tkinchidir, ko'ksingda yuraging urib turar ekan qalbing bilan foniy ekanligingnii his qil! Go'yoki sahrodagi kabi g'ira shira ko'ringan bu dunyoning saroqlariga aldanmasdan qalban yaratgan Robbingga yaqinligingni his qilgin. Ana shundagina Alloh taolo senga „Uchmoh”ni ya'ni abadiy hayotni o'zida mujassam qilgan jannatni ehson qiladi, tuhfa qiladi deya ta'kidlanadi. Hikmatning 3-bandidagi „Va anharin min asalin musaffo” kalimasi „Muhammad” surasidagi 15-oyatga ishora bo'lib, jannatning ta'rifi: „musaffo asaldan bo'lган daryolar ham bordir”[6] deya tashfishsiz osuda hayotni, jannat ajoyibotlari ta'riflanadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida taqvodor, solih insonlarni ulug'lashi bilan birga, ularning sifatlarini bayon qilishi bilan birligida riyokor, aldamchi, qiladigan ishlari botil bo'lган munofiq insonlarni ham tilga olib ularni qattiq qoralaydi. Xususan: hikmatlarining birida Rasululloh (s.a.v.) ning „Al kazzabu la ummati”, „Yolg'ochi kazzoblar mening ummatim emas” degan hadislari keltiriladi:

„Al kazzabu la ummati” dedi sizga,  
Ul Muhammad Haq Rasuli dedi bizga,  
Yolg'onchiga jannat yo'qtur, vallo anga,  
Yolg'on so'zlab iymon barham etmang, do'stlar.[7]

Yassaviy o'z zamonasidagi ayrim ruhoniylarni ham, ularning moddiyatga berilib badavlat muridlar hisobiga mol-dunyo toplashga urinishlarini, tamagir shayxlarni, pirlarni, so'fiynamo kimsalarni ham qattiq tanqid qiladi:

So'fi bo'lub nafs uchun har dam ishingga boqasen,  
„Nazr olib keldimu?” deb har dam kishiga boqasen,  
„Lan'ati Alloh”ni bo'ynungga har dam taqasen,  
So'fiy naqsh bo'ldung, vale hargiz musulmon bo'lmaiding.

Bu hikmatda „lan'ati Alloh” jumlesi, Allohning lan'atiga giriftor bo'lguvchi munofiqlar mazmunida ifodalananib, faqat tilidagina Allohni aytadigan, biroq dilida nafsoniy illatlar iskanjasida bo'lган aldamchi kimsalar nazarda tutilgan holda, qanchalik so'fiynamo bo'lmasinlar, hargiz musulmon bo'lmasliklari aytildi. Shuningdek, Yassaviy ayrim so'fiylar faoliyatiga quyidagicha munosabat

bildiradi:Bizdin so'ngra oxir ul-zamon yaqin bo'lg'onda ondog' mashoyixlar paydo bo'lg'oykim, iblis alayhil la'na olardin saboq olg'oy va hama xalq olarg'a muhib bo'lg'oy va muridlarini boshqarolmag'oylar. Ul shayxlarkim muridlaridin ta'ma qilg'oy va jonini kufr va zalolatdin oyirmag'oy va ahli bid'atni yaxshi ko'rgoy va ahl sunnatni yomon ko'rgoy va ilm shariat birlan amal qilmag'oy va nomahramlarga ko'z solg'oylar va iymonlig' pesha qilib, Alloh taoloning rahmatidin umid tutqoy va mashoyixlar ishini xor ko'rgoy. Muridlari rad bo'lg'oy, o'zлari murtad bo'lg'oy va yana xorliq zorliq birla muridlarining eshidiga yurugoylar. Ul holda muridlaridin niyoz olg'oylar. Agar muridlari nazri niyoz bermasa urushqoylar. Oyg'oylar „ man bezorman - Xudo bezor " degoylar ".Shayx uldurkim, niyoz olsa mustahaqlarg'a , g'arib bechorag'a bergoylar. Agar olib o'zi yesa mardor it yemishdek bo'lg'oy. Agar to'n qilib kiysa ul to'n to'zg'uncha Haq taolo namoz ro'zasini qabul qilmag'oy va agar olg'on niyozidin non qilib yesa Haq taolo oni do'zaxda turluk azobg'a giriftor qilg'oy va agar ondog' shayxg'a har kishi e'tiqod qilsa kofir bo'lg'oy. Ondog' shayxlar mal'un turur. Oning fitnasi dajjoldin badtar turur. Shariatda, tariqatda, haqiqatda, ma'rifatda murtad turur".[8]

Ahmad Yassaviyning o'z hikmatlarida Qur'oni karim va hadisi shariflarga murojaat qilishi, shuningdek, ularga ishora tarzida iymon-e'tiqod mustahkamligi kabi insoniy qadriyatlarning ulug'lanishi va ularga qarama-qarshi ravishda nafsoniy illatlarning, munofiqlik, riyokorlik hislatlarining qattiq qoralanishligi turkiy xalqlar orasida „Yassaviya” tariqatining ravnaq topishiga hamda asrlar davomida Ahmad Yassaaviy shaxsiyatiga qayta-qayta yuzlanilishiga olib keldi. „Yassaviya” tariqatining ko'plab hududlarga yoyilishida, g'oyalarining rivojlanishida Ahmad Yassaviyning shogirdlarining faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ahmad Yassaviy muridlari ichida tanilgan xalifalari quyidahilardir:

- 1.Mansur ota
- 2.So'fiy Muhammad Donishmand Zarnukiy
- 3.Sulaymon Hakim ota
- 4.Bobo Mochin
- 5.Amir Ali Hakim
- 6.Luqmon Parranda
- 7.Imom Marg'oziy
8. Hasan Bulg'oriy
- 9.Shayx Usmon Mag'ribiy kabilardir.[9]

#### Xulosa:

Ko'plab tarixchilarining e'tirof etishicha, Ahmad Yassaviyning Devon holidagi hikmatlar to'plami turkiy xalqlar orasida Qur'oni Karim va hadisi shariflardan keyingi muqaddas manba sifatida e'zozlanib kelangan. Shu bilan birgalikda sodda va haqchil ma'nodagi hikmatlar asrlar davomida O'rta Osiyodagi madrasalarda tolbi ilmlarga darslik sifatida o'qitib kelangan. Keyingi davrlarda yashagan bir qator shoirlar tomonidan Yassaviyning tasavvufiy mazmundagi hikmatnavislik faoliyati davom ettirildi. Xususan, shayboniyilar sulolasidan bo'lган Buxoro xoni Ubaydullaxon „Ubaydiy”, „Qul Ubaydiy” taxalluslarida ijod qilib

Ahmad Yassaviyning hikmatlariga murojaat qilganligi, undan ruhlangan holda hikmatlar yozganligi tarxdan ma'lumdir. Xulosa qilib aytganda, „Yassaviya” tariqati va uning asoschisi piri Turkiston Ahmad Yassaviyning hikmatnavislik faoliyati, undagi tasavvufiy ma’no mazmun har bir insonni qalban tafakkurga, yuksak insoniy fazilatlarni o’zida mujassamlashtirishga chorlashligi bilan, umrimizning har bir soniyasini qadriga yetib yashashga undashligi bilan ahamiyatlidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hamidjon Islomiy „Sulton ul-orifin Xoja Ahmad Yassaviy” Toshkent. Fan nashriyoti – 2005; 2-bet.
2. Ahmad Yassaviy „Devoni hikmat” Toshkent „Navro’z nashriyoti” 2018; 15-bet.
3. Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. – Toshkent, 2001. – B. 4.
4. Nasafiy. Xoja Ahmad Yassaviy. Toshkent „G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”-1993; 8-bet.
5. Ahmad Yassaviy „Devoni hikmat” Toshkent „Navro’z nashriyoti” 2018; 103-bet
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Qur’oni Karim va o’zbek tilidagi ma’nolar tarjiması „Sharq” nashriyoti Toshkent-2011; 508-bet.
7. Ahmad Yassaviy „Devoni hikmat” Toshkent „Navro’z nashriyoti” 2018; 69-bet.
8. Ahmad Yassaviy „Devoni hikmat” Qozon-1904; 5-bet.
9. Yassaviy „Faqrnomasi” Toshkent „Navro’z nashriyoti” 2014; 18-bet.